

I. TRANSPORT VA ALOQA

Yuk tashish. Avtomobil transportida 31,1 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,5 mln. tonnaga ko'pdir. Yuk aylanmasi 768,2 mln. tn-km ga yetdi va bu o'tgan- yilning mos dariga nisbatan 66,0 mln. tn-kmga ko'p demakdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 100,0 % bo'lib, 174,3 mln. tn-km ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 22,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yuk tashish bo'yicha ulushi 89,0 % ni tashkil etgan.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha ifodalanishi

| | 2022- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da |
|----------------------------|----------------------------|--|
| Tashilgan yuk, mln. tn. | 31,1 | 105,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Avtomobil transportida | 31,1 | 105,5 |
| Yuk aylanmasi, mln. tn-km. | 768,2 | 109,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Avtomobil transportida | 768,2 | 109,4 |

Yo'lovchi tashish. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida barcha transport turlari tomonidan 449,7 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,6 % ga ko'paygan.


Yo'lovchi aylanmasi hajmi 8 906,3 mln. yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,3 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalar bo'yicha:

Viloyatda kuzatilayotgan davrda avtotransport ishi bo'yicha hajmli korxonalar soni 45 tani tashkil etib, ular tomonidan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar shakllandi:


Tashilgan yuklar hajmi 2,3 mln. tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,3 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 7,2 %);

Yuk aylanmasi hajmi 82,0 mln. tn-km, o'sish sur'ati o'tgan- yilning mos davriga nisbatan 120,4 % ni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 10,7 %);



Tashilgan yo'lovchilar hajmi 7,1 mln. yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 44,0 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 1,6 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 437,6 mln. yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 51,2 % ni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 4,9 %).



Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 97,3 % ga ko'payib, 8 906,3 mln. yo'lovchi-km ni tashkil qildi.



8 906,3 mln yo'lovchi-km



97,3 %

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yo'lovchi tashish bo'yicha ulushi 94,1 % ni tashkil etgan.

Kichik biznesning yo'lovchi tashishda ulushi

• 94,1 %

Xususiy yo'lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 100,9 % bo'lib, 7 460,8 mln. yo'lovchi-km ni tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 84,6 % ni tashkil etdi.